UO‘K 80. 801. 3310

NEMIS VA O‘ZBEK TILLARIDA MODALLIK KATEGORIYASI TADQIQINING NAZARIY JIHATLARI

Omanov Shuhrat G‘aniyevich,
Qarshi davlat universiteti
Nemis tili va adabiyoti kafedrasi tayanch doktoranti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada nemis va o‘zbek tillaridagi modal partikellarning o‘rganilganlik holati, bu borada olib borilgan ishlar, nazariy manbalar, dissertatsiyalar, maqolalar hamda leksikografik adabiyotlar mufassal bayon etilgan, chuqur tahlil etilib, xulosalar berilgan. Jumladan, nemis tilidagi partikellarning sintaktik jihatlari hamda ularning vazifalari, tasdiqni ifoda etuvchi modal partikellar, ularning funksiyasi, o‘rni hamda qo‘llanishini, so‘zlovchi munosabatini ifoda etilishiga xizmat qiladigan modal partikellarning sintaktik, pragmatik hamda semantik jihatlarini, so‘zlovchining real yoki noreal harakatini va subyekt harakatining o‘z harakatiga munosabatini bildiruvchi modal partikellar, shuningdek, o‘zbek tilidagi yuklamalarning leksik-grammatik belgilari, so‘zlovchining nutqiy sharoitdagi kommunikativ va modal-baho nuqtayi nazaridan yuklamalarning ahamiyati kabi dolzarb jihatlarga bag‘ishlangan ishlar yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *modallik, modal so‘zlar, subyektiv modallik, modallik xususiyatlari, modal partikellar, morfologik jihat, yordamchi so‘zlar, yuklama, leksik-grammatik belgilar.*

THEORETICAL ASPECTS OF THE STUDY OF THE CATEGORY OF MODALITY IN GERMAN AND UZBEK LANGUAGES

Abstract. *This article describes in detail the state of study of modal particles in German and Uzbek, works conducted in this regard, theoretical sources, dissertations, articles and lexicographic literature, provides in-depth analysis and conclusions. In particular, works devoted to such topical aspects as the syntactic aspects of particles in German and their functions, modal particles expressing affirmation, their function, role and use, syntactic, pragmatic and semantic aspects of modal particles serving to express the speaker's attitude, modal particles expressing the real or unreal action of the speaker and the relation of the subject's action to his own action, as well as the lexical and grammatical features of the loadings in the Uzbek language, the importance of the loadings in the communicative and modal-evaluative aspects of the speaker in the speech situation are covered.*

Keywords*: modality, modal words, subjective modality, modal features, modal particles, morphological aspect, auxiliary words, particles, lexico-grammatical features.*

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ИЗУЧЕНИЯ КАТЕГОРИИ МОДАЛЬНОСТИ В НЕМЕЦКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация. *В данной статье подробно описывается состояние исследований модальных частиц в немецком и узбекском языках, работы, проведённые в этой области, теоретические источники, диссертации, статьи и лексикографическая литература, проводится углубленный анализ, и делаются выводы. В частности, рассматриваются работы, посвящённые таким актуальным аспектам, как синтаксические аспекты частиц в немецком языке и их функции, модальные частицы, выражающие утверждение, их функция, роль и использование, синтаксические, прагматические и семантические аспекты модальных частиц, служащих для выражения отношения говорящего, модальные частицы, выражающие реальное или нереальное действие говорящего и отношение действия субъекта к его собственному действию, а также лексико-грамматические особенности частиц в узбекском языке, значение нагрузок в коммуникативном и модально-оценочном аспектах говорящего в речевой ситуации.*

Ключевые слова: *модальность, модальные слова, субъективная модальность, модальные особенности, модальные частицы, морфологический аспект, частицы, лексико-грамматические признаки.*

Kirish. Modallik til va tafakkur munosabatini o‘zida aks ettirganligi bois doim tadqiqotlar va qiziqishlar markazida turadi. Zero, modal so‘zlar so‘zlovchining kommunikativ maqsadi, hissiyotlari kabi jihatlarni turli xil vositalar yordamida ifoda etadi hamda zamonaviy tilshunoslikda bu kategoriya muhim o‘rganilish obyekti hisoblanadi. Modallik kategoriyasi, ayniqsa, keyingi o‘n yilliklarda umumiy qiziqishga sabab bo‘lmoqda, chunki modallikning o‘ta murakkabligi, keng qamrovliligi va unda til va tafakkur munosabatlarining yaqqol ko‘zga tashlanishidadir.

Tilshunoslikda umumiy holatda ikki muhim turga ajratilgan modallik turlarining har biri nutqda tafakkurning qaysidir darajada namoyon bo‘lishini ta’minlab beradi. So‘zlovchining kommunikativ niyati, uning gap mazmuniga emotsional munosabatni bildiruvchi subyektiv modallik garchi gapning faollashtiruvchi qismi bo‘lsa ham, ularning tabiati va gap tuzilishidagi asosiy roli shunchalik xilma-xilki, ularni faqat grammatik jihatdan turli sathlarda, semantik aspektda esa so‘zlovchining munosabatini ifodalash belgisi ostida birlashtirish mumkin xolos. Hozirgi zamon tilshunosligida modallik tushunchasi nihoyatda keng qo‘llanilib semantik kategoriya sifatida ayrim ifoda shakli va turli ma’nolarning uyg‘unlashib ifodalanish xususiyatiga ko‘ra juda xilma xildir. Hozirgacha tilshunoslikda modallik kategoriyasining mazmuni va ko‘lami haqida yagona to‘xtamga kelingan emas. Bu lingvistik modallik bilan mantiqiy modallik to‘laligicha bir-biriga mos kelmasligi bilan izohlanadi va har ikki fan uchun katta muammo hisoblanadi. Tilshunoslikda modallik gapning eng muhim belgisi sifatida o‘rganiladi. Modallik zamirida gap subyekti bilan bog‘liq turli ma’nolari tushuniladi va modallik ikki guruhga ajratiladi: obyektiv modallik; subyektiv modallik.

Adabiyotlar tahlili. Dunyo tilshunosligida modal partikellar har doim tadqiqot obyekti bo‘lib kelgan. Bu borada W.Bublitz, B.Dieter, B.Ulrike, M.Thurmair, F.Reinhard, J.Meibauer, E.Werlen, F. Reinhard, W.Abraham, E.Leiss, G.Diewald kabi tilshunos olimlarning sohadagi izlanishlari salmoqli ahamiyat kasb etadi.

O‘zbek tilida modalning o‘rganilishi J.Yoqubov, Z. Hatamov, Z.Yodgorova, M.Mustafayeva kabi olimlarning tadqiqotlari bilan bog‘liq.

Tilshunoslik sohasida bugungi kunda olib borilayotgan tadqiqotlarda til va inson o‘rtasidagi munosabat faol o‘rganilmoqda. Til va madaniyat, til va etnografik guruhlarning o‘zaro munosabatlari lingvistik tadqiqotlarning obyekti sifatida e’tirof etilmoqda. Mavzuni yoritishda qiyosiy tipologik, analiz va sintez, transformatsion, strukturaviy-semantik va funksional tahlil usullaridan foydalanildi.

Modallik kategoriyasi qadimgi davrlardan boshlab fanda tekshirish obyekti bo‘lib keladi. Modallikni dastlab faylasuflar logika nuqtayi nazaridan o‘rganib ifodalanayotgan fikrning ahamiyatliligi, zarurati, amalga oshirish mumkinligi yoki mumkin emasligi va hokazolarni shu nutqni yuzaga chiqishi bilan bir paytda ko‘rsatishga yordam beradigan vosita deb bilganlar. Antik dunyoda mazkur kategoriya keng miqyosda tadqiq etilgan, masalan, Aristotel bu kategoriya bilan jiddiy shug‘ullanib katta ilmiy ma’lumotlar qoldirgan. U modallikni logika bilan bog‘laydi va nutqni aniq va ravon ifodalash uchun zaruriy vosita sifatida o‘rgangan va o‘zining bir qancha asarlarida uni asoslab bergan, “Talqin haqida“ asarida “mumkinlik” modalligini zaruriyatning yo‘qligidan hosil bo‘lgan deb hisoblagan. Aristoteldan keyin ham Antik dunyoda modallik kategoriyasi chuqur o‘rganilgan, turli xil maktablarda har xil nazariyalar vujudga kelgan. Keyinchalik O‘rta asrlarda va Uyg‘onish davrida modallik, modallik logikasi falsafaning muhim mavzusi bo‘lib qoldi.

Tadqiqot metodologiyasi. O‘rta asrlarda Aristotelning modallik xususiyatlari haqidagi fikrlari keyinchalik X-XI asrlarda Sharqda keng rivojlantirildi va yanada boyitildi. Forobiy, Ibn Sino, Ibn Rushd kabi Sharq mutafakkirlari asarlarida yanada rivojlantirildi. Xususan, Forobiy o‘zining bir qancha asarlarida Aristotel (Arastu) fikrlarini davom ettirib, uning asarlariga izohlar yozib borganlar.

W.Bublitz o‘zining nemis va ingliz tilida so‘zlovchi munosabatini ifoda etilishiga bag‘ishlangan asarida modal partikellarning sintaktik, pragmatik hamda semantik jihatlarini yoritadi [1]. Olimning ta’kidlashiga ko‘ra, modal partikellar morfologik jihatdan o‘zgarmasdir, ba'zi modal so‘zlar grammatik jihatdan o‘zgarishi mumkin, boshqalariga esa ba’zi leksik birliklar qo‘shilishi mumkin[1:37]. Modal partikellar gapning umumiy mazmunini o‘zgartirmasa-da, uning so‘zma-so‘z anglashiladigan ma’nosiga ta’sir etishi mumkin. Modal partikellar tinglovchiga tushunish uchun ko‘rsatma vazifasini bajarishi mumkin [2:55]. Bu o‘rinda ular buyruq maylidagi gaplarda kulgi, imo-ishoralar va boshqa paralingvistik hodisalar bilan muqobil ravishda nutqda yumshatuvchi funksiyani bajarishi mumkin [1:38].

Nemis filolog olimi B.Dieter o‘z asarida nemis tilidagi tasdiqni ifoda etuvchi modal partikellar, ularning funksiyasi, o‘rni hamda qo‘llanishini o‘rgangan. Olimning nazariyasiga ko‘ra, tasdiqni bildiruvchi doch, ja va schon modal partikellari urg‘usiz bo‘lib, gapda gap bo‘laklari uchun muqobil vazifani bajara

olmaydi. Shuningdek, bu lisoniy birliklar gapda erkin joylashuvga ega bo‘lsa-da, fe’lli birikmaning tarkibiy qismi bo‘lmasa, gap bo‘laklariga ishora etmaydi [3:6].

Yuqorida keltirilgan fikrlardan anglashiladiki, modal partikellar yordamchi so‘zlar hisoblanuvchi yuklamalarning bir turi sifatida talqin etilmoqda, biroq ularda ichki differensial farqlar mavjud bo‘ladi. Modal partikellardagi asosiy mezon ularning o‘zgarmas ekanligidir. Shu o‘rinda ularning farqli va o‘xshash jihatlari leksikografik manbalarda mufassal aks ettirilishi lozim.

Ayni shu masalaga bag‘ishlangan asarida B.Ulrike nemis tilidagi “doch” modal partikelining bir tilli lug‘atlarda berilishini tadqiq etgan [4]. Ishda olima madal partikellarning lug‘atlarda talqin qilishning qiyinchiliklari hamda leksikografik asoslari, korpus muammosi, lug‘at maqolachasining tuzilishi va mazmuni kabi omillarni bayon etadi [4:11]. Bizningcha, bu jihatlar dolzarb ahamiyatga ega, zero modal partikellarning umumiy mazmuni, ma’nolari orasidagi farqlar, uslubi hamda semantik xususiyatlarini bilish ularni qo‘llashda muhim rol o‘ynaydi.

M.Thurmair modal partikellar fenomenini keng qamrovli yoritish maqsadida, ularni nemis tili doirasida keng qamrovli tadqiq etadi. Ishning birinchi bobida olim modal partikellarning sintaktik jihatlariga e’tibor qaratadi hamda ularning vazifalari boshqa yuklamalarga qaraganda cheklanganligini ta’kidlaydi, gap turlari va modal partikellar o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil etadi [5:7]. Asarda, shuningdek, *doch, eben, halt, einfach, eh und sowieso, wohl, schon, auch, nicht, denn, etwa, eigentlich, bloss und nur, mal* kabi yuklamalarning mazmuniga ko‘ra qo‘llanilishi bayon etilgan [5:94].

Kundalik hayotda biz bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan his–tuyg‘ular ko‘pligi bilan bir qatorda bu boradagi bilimlar ham turfa va murakkabdir. Shu bois baxtsiz hodisalar, xayrlashuvlar, mojarolar, bayramlar kabi holatlarda o‘ziga xos leksik birliklardan foydalanamiz va bunda yuklamalar muhim ahamiyat kasb etadi. Muloqot jarayonida modallik suhbatlarning umumiy va keng qamrovli xususiyatlari va shakllari bilan uzviy bog‘liq. His-tuyg'ular modal yuklamalarni tanlashga yoki uning o‘zgarishiga ta'sir qilishi mumkin. Muloqotda modallik quyidagi tushunchalar bilan tavsiflanadi: qiziqarli, erkin, hal qilingan, jiddiy, rasmiy, kinoyali, hazilomuz va h.k. Ba’zi hollarda esa bu hodisalar nutq uslubining turli turlari bilan kesishadi [6].

J.Meibauer modal kontrast va konseptual o‘zgarishlarni tahlil qilib, modal partikellarning sintaktik va semantik o‘ziga xosliklarini ochib beradi. O‘z ishida olim ja, doch, schon, denn, halt, etwa modal partikellarining mazmun munosabatlari, gap mazmunida qo‘llanish imkoniyatlarini nazariy jihatdan asoslab bergan [7].

Tahlillar va natijalar. Nemis tilshunosligida modallik munosabati turli aspektlarda o‘rganilgan. Umuman, nemis tilida modallikni o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar juda ko‘p va ular xilma-xil modallik ifodalovchi shakllarni o‘rgangan. Mazkur ishning keyingi boblarida so‘z yuritiladigan modal yuklamalar ham modallikni ifodalashda o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lib, tilshunoslikda bu yuklamalar og‘zaki nutqda modallik anglatadi. Modallik kategoriyasini nemis tili materiallarida tahlil qilgan lingvist olimlar fikricha, modallik tushunchasi quyidagi jihatlarni o‘z ichiga oladi: 1) so‘zlovchining real yoki noreal harakatni baholashga munosabati; 2) subyekt harakatining o‘z harakatiga munosabati. Bu harakatning infinitiv bilan ifodalanishi, uning harakat qobiliyatini tushunish, harakatning amalga oshishga yoki zarurligini anglash; 3) harakatning amalga oshishi uchun so‘zlovchining buyurishi yoki istagi; 4) so‘zlovchining qandaydir uchinchi shaxs tomonidan o‘z fikrini bildirish.

Bu modallik shakllarining har biri o‘ziga xos ifodalanish tizimiga ega. Birinchi tur konyunktiv konditsionalis shakllar bilan, ikkinchi tur modal qurilmalar yoki yordamchi fe’l va infinitiv bilan; uchinchi tur buyruq, indikativ, konyunktiv zamon shakllari va modal fe’llarning qurilmalari bilan; to‘rtinchi tur konyunktiv, konditsional shakllari va *sollen, wollen* modal fe’llarining qurilmalari bilan ifodalanadi; beshinchi turga modal fe’llarning gumon, faraz, taxmin ma’nolarida kelishi va Futurum I va Futurum IIni kiritish mumkin.

Yuqorida keltirilgan nazariyalardan kelib chiqib ta’kidlash mumkinki, nemis tilida modallikni yuzaga keltiruvchilar leksik, grammatik, fonetik kabi asosiy 3 katta guruhga ajratiladi. Mazkur tasnif doirasida bir qancha ilmiy adabiyotlarda ko‘rsatib o‘tilganlardan qo‘yidagilarni sanab umumiy ko‘rinishda sanab o‘tishimiz mumkin: *Modalverben, Konjunktiv, Imperrativ, Futur I und Futur II, Haben/sein ...zu + Infinitiv, Modifizierende Verben, Modaladverben, Modalwörter, Modalpartikeln, Prapositionen mit modale Bedeutung, Suffixen mit modale Bedeutung, Phraseologismen und phraseologische Strukturen, Modalsätze, Wortfolge, Satzwörter, Intonation und Wortakzent, modale Partizipialkonstruktion, modale Subjunktion.*

O‘zbek tilida yuklamalar tadqiqoti bilan shug‘ullangan olim Z.Isoqov monografiyasida ko‘rsatishicha [8] bu boradagi dastlabki tadqiqotni A.Fitrat boshlab bergan. Keyin A.Kononov, I.Baskakov kabi rus olimlari o‘zbek tili grammatikasi bo‘yicha yozgan asarlarida rus tilshunosligi nuqtayi nazaridan o‘zbek

tilidagi yuklamalarni klassifikatsiya qilgan. O‘zbek tilshunosligidagi bu ishlarda ham yuklamalarga struktural tilshunoslik nuqtayi nazaridan baho berib kelingan.

O‘zbek tilshunos olimlaridan A.Xojiyev, A.G‘ulomov, G‘.Abduraxmonov, M.Asqarova, Sh.Shukurov va boshqa tilshunoslar bir qator tadqiqotlar olib borganlar. Tilshunos olim R.Rasulov o‘zbek tilidagi yuklamalar rus tili nuqtayi nazaridan tadqiq qilinganligi sabab boshqa yordamchi so‘zlarga qaraganda kamroq o‘rganilganligini ta’kidlagan [9]. Chunki yuklamalar sof milliy-madaniy xususiyatga ega so‘zlar guruhi bo‘lib, ularga nisbatan munosabat faqat shu til nuqtayi nazaridan kelib chiqib baho berishni talab qiladi.

Yuklamalar bo‘yicha yirik tadqiqotlarni Odiljon Bozorov 1982-yilda „О частицы узбекском языки” nomzodlik dissertatsiyasi bilan boshlab berdi. Keyinchalik bu sohadagi tadqiqotlarni U.Raximov „O‘zbek tilida yuklamalar presuppozitsiyasi” (1994) nomzodlik dissertatsiyasi, D.O‘rinboyeva „O‘zbek so‘zlashuv nutqida o‘zgarmaydigan so‘zlar(yordamchi so‘zlar)” (1994) nomzodlik dissertatsiyasi, T.Turdiboyev „O‘zbek tilida yordamchi so‘zlar konversiyasi” (1996) nomzodlik dissertatsiyasi, O‘.Lafasov „Dialogik nutqda subyektiv modallikning ifodalanishi” (1996) nomzodlik dissertatsiyasi, Z.Isoqov „O‘zbek tilida so‘z turkumlarining o‘zaro munosabatlari. Unda yuklamalarning tutgan o‘rni” (2010) nomzodlik dissertatsiyalarida davom ettirdi.

Odiljon Bozorov o‘z ishida o‘zbek tilidagi yuklamalarning leksik-grammatik belgilari, so‘zlovchining nutqiy sharoitdagi kommunikativ va modal-baho nuqtayi nazaridan muhim bo‘laklarni ta’kidlab ko‘rsatishida yuklamalardan samarali foydalanishni uqtiradi [10]. Usmonjon Rahimov yuklamalarning anglatadigan presuppozitsion xususiyatlarini bir nechta yuklamalar misolida o‘rganib chiqqan [11]. Dilbar O‘rinboyeva o‘z tadqiqotida yordamchi so‘zlarning o‘zbek so‘zlashuv nutqida ishlatilishi va ifodalaydigan ma’nolari ustida izlanish olib borib affiks va so‘z holidagi yuklamalarning og‘zaki nutqdagi bajaradigan vazifalarini ko‘rsatib bergan [12]. Eng e’tiborli jihati so‘zlashuv nutqidagi bajaradigan vazifalariga ko‘ra yuklamalarni 6 turga ajratgan va mana shu o‘rinda “**modal ma’noli yuklamalar”** atamasini qo‘llagan. Biz o‘rgangan tadqiqotlar ichida ushbu ishda birinchi marta yuklamalarning alohida bir guruhi – modal ma’noli yuklamalar haqida gap ketgan. Boshqalarida yuklamalarni yoppasiga modallik ifodalovchi deya ta’riflashgan. Tohir Turdiboyev o‘zbek tilidagi yordamchi so‘zlarning o‘zaro konversiyalashuvi (birining vazifasida boshqasini qo‘llanila olishi) bo‘yicha izlanishlar olib borib yuklamalarning bog‘lovchilar bilan o‘zaro konversiyasini o‘rganib chiqdi [13]. Bu tadqiqot ishi matnni tahlil qilish jarayonida yuklamalarning bog‘lovchilar bilan o‘zaro munosabatlarini va gap tarkibidagi vazifalarini aniqlash jarayonida yuzaga keladigan holatlarni yengillashtirishga yordam beradi. O‘roq Lafasov dissertatsiyasida og‘zaki nutqdagi subyektiv modallik ifodalovchi vositalardan biri sifatida yuklamalarni ham ko‘rsatib ularning dialogik nutq ifodalaydigan bir qator modal ma’nolarini ko‘rsatgan. Jumladan, *so‘roq-qiziqish, gumon-ta’kid, ta’kid-tasdiq, ta’kid-kuchaytiruv,e’tirof, so‘roq-ta’kid, ta’kid-e’tiroz, qiziqish, taxmin, ta’kid-g‘ururlanish, e’tiroz-norozilik, so‘roq-tasdiq kutish, ikkilanish, eslatish, taajjub* kabi [14].

Z.Isoqov o‘zbek tilidagi yordamchi so‘zlarning o‘zaro munosabatlarini va unda yuklamalarning tutgan o‘rni bo‘yicha tadqiqot olib borib, yuklamalar klassifikatsiyasiga ba’zi bir o‘zgartirishlar kiritdi, ya’ni hozirgacha mavjudlari qatoriga yangilarini qo‘shishni taklif qildi. Masalan: *-jon,-xon,-oy*, kabi qo‘shimchalarni subyektiv baho ifodalovchi yuklamalar qatoriga kiritgan [8].

O‘zbek tilidagi yuklamalarni tadqiqoti bo‘yicha dastlabki yirik manba bu – “O‘zbek tilining Akademik grammatikasi” hisoblanib unda yuklamalarning semantik xususiyatlari ancha keng ochib berilgan. Unda yuklamalarga quyidagicha ta’rif berilgan: Ayrim so‘z yoki gapga qo‘shimcha ma’no jilosi (ottenka) berish uchun xizmat qiladi.

O‘zbek tilida modal partikellarning o‘rganilishining navbatdagi bosqichi J.Yoqubov, R.Komiljonova, Z.Yodgorova, M.Mustafayeva kabi olimlarning tadqiqotlari bilan bog‘liq. Ular o‘z tadqiqotlarida o‘zbek tilida modallik kategoriyasi ifodalanishini ochib berganlar. Ushbu tadqiqotlarda modallik kategoriyasiga yondashuv va ifodalashga xizmat qiladigan vositalar borasida bir qancha qarashlar bor.

Ushbu tadqiqotlar natijasida o‘zbek tilidagi modallik ifodalovchi vositalarning umumiy tasnifi ko‘rsatib o‘tilgan va ko‘pgina ilmiy adabiyotlarda quyidagilarni o‘zbek tilidagi modallik ifodalovchilar sifatida ko‘rsatiladi: *modal so‘zlar, yuklamalar, undov so‘zlar, to‘liqsiz fe’llar (boshqa so‘zlar bilan birgalikda), ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmalari, mayl qo‘shimchalari, modallik bildiruvchi ayrim fe’llar, fe’lning bo‘lishsizlik shakli, fe’llar tarkibidagi nisbat bildiruvchi qo‘shimchalar, otlar tarkibidagi maxsus affiks va affiksoidlar, otlar tarkibidagi uslubiy ma’no beruvchi – lar qo‘shimchasi, sonlar tarkibidagi ayrim qo‘shimchalar, sifatlar tarkibidagi ayrim qo‘shimchalar, modal gaplar, tasdiq va inkor gaplar, kirish birikma va kirish gaplar, havola bo‘laklar, ohang, uslubiyat va boshqalar.*

O‘zbek tilshunosligida modallik kategoriyasi va uning boshqa tillar bilan chog‘ishtirma tahlili fundamental tadqiqot sifatida filolog olim J.Yoqubov ishlarida ko‘zga tashlanadi. Tadqiqotchi modallik kategoriyasini mantiq ilmida tutgan o‘rni hamda uning semantik xususiyatlarini o‘rganadi. Uning fikricha, til bilan mantiqning o‘zaro bog'liq va bu yangi bosqichga chiqmoqda, zero modallik tafakkurimizning mantiqiy qurilishi bilan yaqin munosabat kasb etadi va shu bois tilshunoslik va mantiqning tekshirish obyektidir. Tilshunoslikda modallik gapning eng muhim belgisi, mantiqda esa tafakkur shakli hukmning muhim belgisi sifatida qaraladi [15].

Shuningdek, bir nechta til guruhlari yohud tillar doirasida modallik aspektini tahlil etilganligi J.Yoqubov tadqiqoti ilmiy qimmatining yuqori ekanligini belgilaydi. Olim roman va german tillariga e’tibor qaratar ekan, nemis tili xususida ham alohida to‘xtalib o‘tgan. Olimning fikriga ko‘ra, nemis tilida modallik tushunchasi so‘zlovchining real yoki noreal harakatni baholashga munosabati, subyekt harakatining o‘z harakatiga munosabati, ish harakatning amalga oshishi uchun so‘zlovchining buyurishi yoki istagi hamda so‘zlovchining qandaydir uchinchi shaxs tomonidan o‘z fikrini bildirilishi kabi jihatlarni o‘z ichiga oladi [15:95].

Bizning nazarimizda, hozirgi zamon nemis tili grammatikasida modallik kategoriyasining mohiyatini chuqurroq ochish uchun yana bitta modallik turini ajratish mumkin. Bu yerda so‘zlovchining gapga bo‘lgan munosabati ish-harakatning reallik yoki norealligini baholash emas, balki ish-harakatning amalga oshishi mumkinligini baholash va taxmin qilish (sie muss, kann, mag heute spät gekommen sein) darajasi ko‘zda tutilyapti.

O‘zbek tilshunosligida tilimizdagi modal so‘zlarning o‘zi alohida tadqiqot obyekti sifatida olinib chuqur ilmiy tahlil etilgan yana bir ilmiy tatqiqot R.Komiljonova tomonidan yozilgan nomzodlik ishidir. Tadqiqot o‘zbek tilidagi modal so‘zlarni o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lib, modal so‘zlarni maxsus leksik-grammatik kategoriya sifatida aniqlab umumlashtirish, tadqiq qilish va semantik jihatdan tasniflash va sintaktik vazifasini tavsiflash borasida qilingan eng muhim manbalardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda tahlillarda keng uchrayotgan “obyektiv modallik”, “subyektiv modallik” atamalarini mazkur ishda uchratish mumkin. Olima obyektiv modallikda voqelikka munosabat ifodalanishini, subyektiv modallikda esa so‘zlovchining gapirayotgan fikriga munosabatini bildirishni ta’kidlaydi [16].

Ko‘rinadiki, modallik qo‘llanilish hamda mazmun-mohiyatiga ko‘ra murakkab va turli funksiyalarga egaligi sababli olamning lisoniy manzarasida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda amalga oshirilayotgan zamonaviy tadqiqotlarda shu kabi yondashuvlar uchramoqda. Z.Yodgorova tomonidan filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi media olamning lisoniy manzarasida modallik kategoriyasining milliy o‘ziga xosligini o‘rganishga bag‘ishlangan. Ishda dissertant zamonaviy media tiliga oid nazariy qarashlar: tadqiq va talqin, media tilida modallik kategoriyasining lingvistik asoslari va olamning lisoniy manzarasini aks etishi, modallik kategoriyasining leksik-grammatik xususiyatlari, modallik kategoriyasida sintaktik tasnif, media-matnda modallik kategoriyasining voqalanishi, mediamatnda modallik kategoriyasining aksiologik tadqiqi, media tilida modallik kategoriyasining lingvomadaniy xususiyatlarini belgilovchi omillar kabi aspektlar mufassal bayon etilgan.

O‘zbek tilidagi modallik ma’nosini ifodalanishi A.Kononov sintaktik tizimda o‘rganib, modallik mazmunini ifodalashiga ko‘ra gaplarni qo‘yidagicha guruhlarga ajratadi: 1) buyruq modal gap; 2) istak modal gap; 3) shart modal gap; 4) zaruriyat modal gaplar kabi.

Modal so‘zlarni chog‘ishtirma aspektda tadqiq etishga bag‘ishlangan ishlar ko‘lami ham ortib bormoqda. Jumladan, ingliz va o‘zbek tillarida modal so‘zlar tipologiyasi, tarjimasi va leksikografik talqini M.Mustafayeva tomonidan o‘rganilgan. Tadqiqotda modal so‘zlarning so‘z turkumlari va til tizimidagi o‘rni, ingliz va o‘zbek tilidagi modal so‘zlarning grammatik imkoniyatlari, modal so‘zlarning semantik xususiyatlari modal so‘zlarning badiiy matndagi tarjimasi muammolari, o‘zbek tilidagi modal so‘zlarning ingliz tiliga tarjimasi, ingliz tilidagi modal so‘zlarning o‘zbek tiliga tarjimasi tahlil etilgan [17].

Xulosa qilish mumkinki, rus, ingliz, nemis, fransuz, turk, o‘zbek kabi alohida tillarda modal partikellarni turli aspektlarda tadqiq etish maqsadida boy tajriba to‘plangan. Biroq til tizimlar majmui hisoblanadi, u boshqa tillar bilan ham chog‘ishtirma o‘rganilishi lozim. Nemis va o‘zbek tillari modallikning qiyosiy tadqiqiga bag‘ishlangan qator ilmiy ishlar yaratilgan bo‘lsa-da, bu ikki tildagi modal partikellarning qiyoslab chuqur o‘rganilmaganligi tadqiqotning dolzarbligini belgilovchi omildir.

ADABIYOTLAR:

1. Bublitz W. Ausdrucksweisen der Sprechereinstellung im Deutschen und Englischen Untersuchungen zur Syntax, Semantik und Pragmatik der deutschen Modalpartikeln und Vergewisserungsfragen und ihrer englischen Entsprechungen. – Tübingen: Max Niemeyer Verlag, 1978. – 256 S.

2. Watzlawick, Paul, J. B. Beavin, D. D. Jackson. 1969. Menschliche Kommunikation - Formen, Störungen, Paradoxien. Stuttgart. S. 55

3. Dieter B. Die affirmativen Modalpartikeln doch, ja und schon: ihre Bedeutung, Funktion, Stellung und ihr Vorkommen. – Tübingen: Niemeyer, 1985. –S.6.

4. Ulrike B. Modalpartikel und Lexikographie. Studie zur Darstellbarkeit von „doch" einsprachigen Wörterbuch. - Tübingen: Niemeyer, 1985. – 150 S.

5. Thurmair M. Modalpartikeln und ihre Kombinationen. - Tübingen: Max Niemeyer Verlag 1989. – S.7.

6. Reinhard F. Kommunikation und Emotion. Theoretische und empirische Untersuchungen zur Rolle von Emotionen in der verbalen Interaktion. - Berlin: Walter de Gruyter, 1990. -S.178.

7. Meibauer J. Modaler Kontrast und konzeptuelle Verschiebung: Studien zur Syntax und Semantik deutscher Modalpartikeln. - Tübingen: Niemeyer, 1994. – 252 S.

8. Isoqov Z. O'zbek tilida so'z turkumlarining o'zaro munosabati. Unda yuklamalarning tutgan o'rni. Monografiya. Qo'qon 2011.

9. Rasulov R. O'zbek tilida yordamchi so'zlarning semantik-grammatik xususiyatlari. Toshkent."FAN" 1983, 5.

10.Bozorov O. O. Частицы в узбекском языке. Дисс.к.ф.н., Москва, 1982.

11.Raximov U. O'zbek tilida yuklamalar presuppozitsiyasi. F.f.n. diss. Samarqand. 1994.

12.O'rinboeva D. O'zbek so'zlashuv nutqida o'zgarmaydigan so'zlar(Yordamchi so'zlar). F.f.n. diss. Samarqand 1994.

13.Turdiboev T. O'zbek tilida yordamchi so'zlar konversiyasi. f.f.n. diss. Toshkent: 1996.

14.Lafasov O'. Dialogik nutqda subyektiv modallikning ifodalanishi. F.f.n. diss. Toshkent: 1996.

15.Yoqubiv J. Modallik kategoriyasining mantiq va tilda ifodalanishining semantik xususiyatlari. Monografiya. – Toshkent: Fan,2005. –B.5

16.Камильджанова Р. Модальные слова в современном узбекском языке. Автореф. дис. канд. филол. наук. –Ташкент, 1975. – С. 28

17.Mustafayeva M.B. Ingliz va o'zbek tillarida modal so'zlar tipologiyasi, tarjimasi va leksikografik talqini. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Qarshi: 2025. B.25.